

ABDULLA ORIPOVNING “SOHIBQIRON” DRAMASIDA TEMUR OBRAZINING TALQINI

Jozilova Zarnigor Mashrabboy qizi
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
bakalavr ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Abdulla Oripovning “Sohibqiron” she’riy dramasida bosh qahramon siymosining tasvirlanishi, uning oddiy xalqqa, o‘z farzand va nabiralariга mehri, olijanoblighi, g‘amxo‘rlighi bilan bir qatorda qattiqqo‘llighi, talabchanlighi aks etgan. Asar davomida Temur o‘zining adolati va buyuk siyosatchi ekanlighi aks etgan sahnalar shoir mahorati bilan yuksak darajada ochib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *she’riy, drama, “Sohibqiron”, obraz, shaxs, adolat, tarixiy, badiiy, o‘y, Lyusyren Keren.*

Barchamizga ma’lumki, tarixda o‘zidan o‘chmas iz qoldirgan buyuk shaxs Amir Temur hayoti oradan necha asr o‘tishiga qaramasdan, to‘xtovsiz bahs va tadqiqotlarga sabab bo‘lgan. Shu tufayli bo‘lsa kerak, Temur obrazi va uning hayot yo‘li to‘g‘risida ko‘plab tarixiy va badiiy asarlar yaratilgan. Shu jumladan, g‘arb tadqiqotchisi L.Keren o‘z asarida Temurning davlat siyosati haqida: “Amir Temur adolatni yaxshi ko‘rardi, shu sababli ham uning saltanatida birorta inson behuda ranjitilmagan, zulm ko‘rmagan. U ilm-fanni ham, ilm ahlini ham hurmat qilar, eng ezgu maqsadi esa butun saltanatida madaniyat va san’atning gullab yashnashiga erishish edi. Uning olijanoblighi bisyor va bisyor hollarda namoyon bo‘lmishkim, alar haqida so‘ylab o‘tirishning o‘rni emasdir” , - deya ta’kidlab o‘tgan.

Abdulla Oripovning “Sohibqiron” she’riy dramasida buyuk bobolonimiz Temur obrazi yuksak iftixor va ehtirom bilan qalamga olingan. Ushbu asarda asosiy e’tibor shafqatsiz, qirg‘inbarot urushlar, jang-u jadallar emas, balki ko‘proq o‘ylar girdobida: hayot va inson haqidagi o‘y-xayollar, fikrlari, mushohadalari, sa’y-harakatlari aks ettirilgan. Bilamizki, Amir Temur haqida ko‘plab turli badiiy va tarixiy asarlar yaratilgan, ammo Abdulla Oripovning ushbu dramasi o‘zida ifodalagan mazmun va obraz jihatlari bilan barchasidan ajralib turadi. Dramada Amir Temur bir vaqtning o‘zida g‘amxo‘rlighi, olijanoblighi, shafqati va marhamati bilan bir qatorda talabchanlighi, adolatparvarlighi va qattiqqo‘l shaxs sifatida ochib berilgan. Asarni o‘qish jarayonida o‘quvchi bosh qahramonning bir necha o‘ziga xos jihatlari ochib boraveradi.

Amir Temur:

“Farzandlarim, bir gapimni aslo unutmng:
Tinchlik bilan hal bo‘lsa gar biror muammo
Hech kimsaga o‘zingizcha qurol ko‘tarmang.

Birorta shoh o‘z eliga o‘tkazsa zulm
 Adolatning qilichini baland ko‘tarib,

Yanching uni! ” , - ushbu jumladan Sohibqironning naqadar oliyjanob va adolatparvar ekanligini anglash qiyin emas. Asar davomida Temurning Yassaviy bilan bo‘lgan suhbatiga duch kelamiz. Unda:

Yassaviy Temurga qarata:

“Allohimning xohishiga muvofiq kelsa
 Ikki dunyo savob erur har qandayin ish.
 Ayt-chi Temur, sen besabab qon to‘kkanmisan? ”

Temur javoban:

“Adolat va dini Islom himoyasi deb
 Yer yuzini fath ayladim, tartib o‘rnatdim” , - deya javob qiladi.

Asarda Temurning o‘ziga xos jihatlaridan biri sifatida uning ayollarga bo‘lgan iltifoti, hurmati va muhabbati desam adashmayman.

“ Saltanatni oltin uzuk desam men agar

Uning oliy bezagi – Siz,

Yoqut ko‘zi – Siz.

Eslaysizmi, ne deb yozmish eronlik Hofiz:

-Agar ko‘nglimni shod etsa o‘shal Sheroz jononi
 Qaro xoliga baxsh etgum Samarqandu Buxoroni.

Shoir bilmas, allaqachon bu ikki shahar

Hadya bo‘lgan Bibixonning qaro xoliga. ” , - Temur tomonidan Bibixonimga aytilgan ushbu jumladan sof muhabbat, o‘zgacha hurmat va ehtirom yaqqol aks etadi. Dramadagi bir voqea kitobxon e‘tiborini o‘ziga tortadi. Bibixonim va Temur suhbatlashayotgan bir paytda Mironshohning rafiqasi Xonzodabegim kirishga ruxsat so‘raydi va Mironshoh ba‘zan sarxush paytlarida unga qo‘l ko‘tarayoganini aytib arz qiladi. Bu suhbatdan so‘ng Temur o‘g‘li Mironshohni yoniga chaqirib, unga nasixat qiladi va qilmishi uchun 40 kun zindonband qiladi.

Amir Temur (Mironshohga):

“Ayol zoti xonadonning shamchirog‘idir,
 O‘sha chiroq o‘chmasin, deb jang qilamiz-ku!
 Endi esa, zindonga bor!

Qirq kun yotgaysan” , - ushbu jumladan yana bir bor Temurning ayollarga bo‘lgan iltifoti, ehtiromi va hurmati yuksak darajada ekanligi yozuvchi mahorati bilan juda chiroyli yoritib berilgan.

Xulosa qilib aytganda, A.Oripov ushbu drama orqali Temurni jang-u jadallar va siyosiy maydonda emas, aksincha o‘z xayollari og‘ushida tasvirlagan. Sohibqiron timsolini shaxs sifatida o‘z insoniy fazilatlariga, qarashlariga ega, o‘sha davrning asl farzandi sifatida gavdalantirgan. Asarning har bir sahnasida o‘quvchi o‘zi uchun bosh qahramonning yangidan-yangi jihatlarini ochib boraveradi. Bunda shoirning mahorati



kitobxonga o'zgacha ruh bag'ishlab, dramani rangdor badiiy bo'yoqlar bilan boyitib borgan.

ADABIYOTLAR:

1. Oripov A. Sohibqiron. Drama.- Toshkent. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1996.
2. Keren L. Amir Temur saltanati.- Manaviyat. 1999.